

KUBRAVIYLIK TARIQATINING ASOSLARI

Allaberganova Ilmira
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi
+998991139592

Annotatsiya

Maqola ko'hna Xorazm zaminida yashagan Shayx Najmiddin Kubro tomonidan asos solingan kubraviylik tariqatining paydo bo'lishi va asoslariga bag'ishlanadi. Maqolada Najmiddin Kubroning o'z tariqatida insonlarini ezgulikka, ilmga, saxovat, vatanparvarlikka va mardlikka da'vat etganligi hamda shogirdlarini tariqat ilmini chuqur egallashga chorlaganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: tariqat, pir, ilmu-urfon, kubraviylik, vatanparvarlik, tasavvuf.

Introduction

Kirish

Ko'hna Xorazm zamini azaldan ilmu-fan, madaniyat va ma'rifat beshigi bo'lib, shu zaminda yashab o'tgan aziz-avliyolari bilan tabarruk va muqaddasdir. Ana shunday buyuk zotlardan biri tasavvufning kubroviylik tariqati asoschisi, Jaloladdin Xorazmshohning ustoz va piri Shayx Najmiddin Kubro dir. Shayx Najmiddin Kubro millat va dinning porloq yulduzi, o'z zamonasining qutbi deya ulug'langan buyuk insonparvar va vatanparvarlardandir. Najmiddin Kubro butun umr inson pokligi, ilohiy ma'rifat uchun kurashdi, dunyoviylik bilan ilohiylikni qo'shdi, mardlik va ma'naviy yuksalishdan saboq berdi, barchaga uning hayoti ibrat namunasi bo'ldi. Shu bois uning merosi qadrlanib, avlodlar e'zozi, hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lgan. Shayxning to'liq nomi Ahmad ibn Umar Abuljannob Najmiddin Kubro al-Xeva'iy al-Xorazmiydir. Shayx "Kubro", "Tommat ul-Kubro", "Najmiddin", "Abuljannob", "Valiytarosh" deb ulug'langan. Ahmad yoshligidan ilmga qiziqqan qobiliyatli inson bo'lgan. U shariat ilmlarini puxta egallab, yigitlik pallasida tengqurlari bilan bo'lgan barcha bahslarda hamisha g'olib chiqqani uchun uni "Tammatul-Kubro" deya atashgan. Keyinchalik "Kubro" so'zi laqab bo'lib qolgan. Buning yoniga "Najmiddin" – "dinning yulduzi" degan martaba-unvon qo'shib, Ahmad ibn Umar shundan keyin Najmiddin Kubro nomi bilan mashhur bo'lib ketadi.

Shayx Najmiddin Kubro o'nlab asarlar muallifi hamdir. Jumladan, uning "Fiodobus solikin" ("Soliklar odobi haqida"), "Risola attul xayf ul – xoim an lavmat il – loim" ("Qo'rquvchi ovvoralar va malomat etuvchi malomatiylar haqida"), "Favoyihul jamol" ("Go'zallikni egallash"), "Ruboiylar to'plami", "Favoyihul jamol va favotihul jalol" ("Jamol xushbo'yliklari va jalolning kashfi"), "Al-usul al – ashara" ("O'nta usul"), "Risola at-turuq" nomli asarlarida Ollohni tanish, halollik va mardlikni ulug'lab, ilm olish va ilm berish savobi barcha mo'min musulmonning burchidir degan fikrlar oldinga surilgan. Uning tasavvuf tarixidagi yana bir xizmatlari – javonmardlik g'oyalarini tariqatga joriy etish bo'ldi. Natijada mardlik va poklik, qahramonlik va fidoyilik, ma'rifat va jismoniy-ruhiy qudrat birlashtirildi, inson kamolatida ahloqiy yuksaklik, vatanparvarlik g'oyalari qo'shib ifodalandi.

Asosiy qism

Xorazm ahli Shayx Najmiddin Kubroga ixlos qilib, kubroviylik tariqatiga e'tiqod qo'yadi. Tariqatning bosh maqsadi kishilar qalbidan "nafsi ammora" ehtirolarini siqib chiqarish, ruhiy-ma'naviy kamolotga da'vat etish, ko'ngilga mardlik, poklik, sadoqat g'oyalarini singdirish, ma'rifat nuridan bahramand etish bo'lgan. Kubroning qo'li ostida turli tabaqa va toifaga mansub yuzlab muridlar tarbiyalanib, islom ma'rifati, irfon ilmidan ta'lim olganlar. Najmiddin Kubro shogirdlarini ezgulikka, ilmga, saxovat va mardlikka da'vat etgan. Shogirdlari orasidan Shayx Majiddin Bag'dodiy, Shayx Sayfiddin Boxarziy, Shayx Sa'diddin Hamaviy, Shayx Rukniddin Alouddavla singari musulmon olamiga mashhur insonlar yetishib chiqqan.

Najmiddin Kubro tabiatida donishmandlik, mantiqiy tafakkur va majzublik uyg'unlashib ketganki, uning so'fiyona amallari va qarashlarida ham xilma-xil tomonlar ko'zga tashlanadi. Xonaqoda xilvatnashinlik va chilla o'tirish ham, botiniy-hafiy zikr, qizg'in bahs-munozara ham, samo' majlislari ham bo'lib turgan, Kubro murid tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib, ularning qaysi mazhab va oqimdan bo'lishidan qat'iy nazar, ma'naviy yuksalishi hamda tariqat ilmini chuqur egallashga chorlagan. Najmiddin Kubro hamisha bir holatda bo'lmagan, ba'zan birdan jo'shib, o'zga kayfiyatga kirib, vujudi balqib ketgan, ba'zan hazin va o'ychan, g'oyat kamgap bo'lib qolgan, ba'zan xushchaqchaq va ochiq chehra bilan suhbatga berilgan, g'oyat nozik did va o'tkir so'zlar bilan muridlar qalbiga olovli cho'g' tashlagan, turli ishoralar, harakatlar, ruhiy karomatlar orqali atrofdagilarni hayratga solgan.

Shayx bag'oyat zukko, salobatli, haybatli kishi bo'lgan, kechalari aksar bedor o'tirib, ibodat qilgan, surunkali ro'za tutishni odat qilib, ba'zida xonaqoh hovlisini kezib, sayr etgan. Eng yaxshi hisob-kitobni o'z nafsi bilan hisob-kitob qilish, deb hisoblagan.

Shayx Najmiddin Kubro asos solgan tariqatning o'ziga xos jihatlari uning dunyoqarashida ham, amaliy ishlarida ham ko'zga tashlanadi. Najmiddin Kubro Muhammad s.a.v.ning "O'lmasdan burun o'lingiz" hadisining mohiyatini tariqat yo'lining ixtiyoriyligi va ko'ngilliligi bilan bog'laydi: "tabiiy ravishda o'lib, ruhni badandan tark ettirish, o'lim va hayot yaratilish ibtidosidan to so'nggi nafasgacha insonda yashiringan, inson Haq murodini o'z maqsadi bo'yicha ixtiyor etishi kerak, zero, o'lim haqiqiy hayotning natijasidir".

Najmiddin Kubro "Ko'nglim ko'zi bilan ko'rganlarim" asarida shunday yozadi: "Dunyoning bir qismini kezib, ishlarni sinovdan o'tkazdim, turli amallar bilan shug'ullanib, ma'lum kishilar bilan muloqotda bo'ldim. Buyuk ishlarni amalga oshirib, barcha narsalarning achchiq-chuchugini tatib ko'rdim. Kitoblarni tekshirib chiqib, olimlar xizmatida bo'ldim. Dunyo istab umrimni bekorga o'tkazdim. Ko'p ajoyib narsalarni ko'zdan kechirib oldimki, "eng tez o'tib, eng tez zavol topadigan narsa umr va dunyo ekan". Hech bir narsani o'lim va oxiratdan yaqinroq, hech bir narsani umid-istakdan uzoqroq va hech bir narsani ta'anniy (og'irlik va matonat) yaxshiroq ko'rmadim".

Najmiddin Kubro nafsning pokizaligi faqat payg'ambarlarga va ko'ngilning tirikligi avliyolarga xos ekanligi, har qancha qidirilsa ham, tinchlik va rohat dunyodan voz kechish va uni tark etishdan boshqa narsada emasligi, Buyuk Tangri bilan unsu-ulfatda bo'lish faqat odamlardan uzilib, go'shada o'tirish, shaytonga qarshi kurash insonning o'z nafsiga qarshilik va unga dushmanlik bildirish yo'li bilan amalga oshirishini e'tirof etgan.

Najmiddin Kubro fikricha, dunyo – o‘ylash o‘rni, ibrat manzili, ishrat saroyi, ko‘prik binosi, mo‘minlarning ekinzori, qidiruvchilarning bozori, intiluvchilarning savdo do‘koni, izlanuvchilarning ulovi, suluk yo‘liga kirganlarning ma‘shuqasi, soliklarning o‘tar joyi, oriflarning axlatxonasi va shaytonlarning o‘lkasidir. Dunyo har lahza o‘zi uchun bir do‘st tanlaydi, har soat birovni o‘ldiradi. Ummonning qirg‘og‘i va unda cho‘kkanlarning soni yo‘q. Uni sevganlar yo‘ldan ozganlar, unga ishonganlar o‘lim bo‘sag‘asida bosh qo‘yganlardir. Undan voz kechgan farog‘atda yashaydi, unga intilgan faqat u bilan shug‘ullanadi. uning bilan savdo qilgan adashadi, unga ko‘ngil bergan yo‘ldan ozadi.

Najmiddin Kubro aql va nafsni bir-biriga qiyoslab, aql bilan nafsni ikki qadimiy dushman kishiga o‘xshatadi, ya‘ni ularning har biri o‘z qo‘lida yalang‘och qilich tutib, ikkinchisini o‘ldirishga shaylanib, bir lahza ham bir-biridan ko‘z uzmaydi. Qay birini g‘aflat bossa, o‘sha zahoti mag‘lubiyatga uchraydi. O‘z nafsiga zolim bo‘lgan kishi uning sharidan qutulib, hiyla va makrlardan chetda qoladi. Buyuk Alloh shunday marhamat qilgan: “Va minhum zolimun li nafsih” (ulardan ba‘zilar nafsiga zulm qilgandir).

Najmiddin Kubro tariqat ahlining zaif kishilar oldida toat-ibodatni bezab ko‘rsatishi, o‘z ishiga katta baho berib, riyo va munofiqlik qilishi, xalq tomonidan ko‘rsatilgan ixlosni yoqtirib, qo‘lni o‘ptirishi, o‘zining tabarruk sanalishi va ziyorat qilishlarini xush ko‘rishi, odamlar olqishini istashi, samo‘ majlislarida hozir bo‘lib, horiqulodda odat (favqulodda hodisalar ko‘rsatishga intilishi), sun‘iy suratda (xo‘jako‘rsin uchun ro‘za tutishi) ro‘za tutib, oz ovqatlanishni ko‘rsatishi, yolg‘ondan yig‘lashi, lablar bilan tamshanib, ko‘z bilan ishora qilishi, qalbi huzursiz Allohga yolvorishi, yamalgan liboslar kiyishi, tushlar ko‘rib o‘tmish va kelajak haqida hukm yurgizishi, ojiz kishilarni ko‘rish bilan toat-ibodatda mubolag‘a qilishi, ammo xilvatda (yolg‘iz qolganda) ibodatda dangasalik qilishi, majlislarda to‘rga o‘tib, samo‘ majlislarida haddan oshishini tanqid qilgan.

Shayx Najmiddin Kubroning huzuriga Eron, O‘rta Osiyo, Arabiston, Kavkaz, Shom, Iroqning turli joylardan muridlar kelib, tarbiya topganlar, shayx ma‘rifatidan bahramand bo‘lib, uning suhbatida ishtirok etganlar.

Manoqiblarda yozilishicha, mo‘g‘ullar istilosi arafasida Shayxning to‘rt yuzdan ortiq muridlari bo‘lib, ular orasida nomlari tarixda qolgan, o‘zlari ham katta shayx darajasiga ko‘tarilgan Shayx Majdiddin Bag‘dodiy (vaf. 1219 y.), Shayx Sa‘diddin Hamaviy (vaf. 1252 y.), Shayx Sayfiddin Boharziy (vaf. 1261 y.), Shayx Najmiddin Roziy Doya (vaf. 1256 y.), Shayx Roziddin Ali Lolo (vaf. 1244 y.), Shayx Jamoliddin Ahmad Jurfoniy (vaf. 1269 y.) va boshqalar. Bundan tashqari, Shayx Nuriddin Abdurahmon Isfaroiniy (vaf. 1317 y.), Abul Makorim Rukniddin Alouddavla (vaf. 1336 y.) ham bevosita bo‘lmasa-da, biroq nisba bo‘yicha Najmiddin Kubro muridlaridirlar. Ularning har biri tasavvuf tarixida o‘z mavqeiga ega bo‘lgan kubroviylik tariqatining davomchilari hisoblanadilar. Kubroviylik Sharq mamlakatlariga tarqalib, islomiy hikmat va insoniy poklik, ilohiy ma‘rifat g‘oyalarining zabt etilishiga yordam berdi.

Hulosa

Asrlar davomida vatanparvarlik timsoli bo‘lib xizmat qilib kelayotgan, Shayx Valitarosh nomi bilan shuhrat qozongan Najmiddin Kubroning madaniy-ma‘naviy merosi ham biz uchun

qadrli va e'zozlidir. Ularda shaxs tarbiyasi, jamiyat tinchligi va ravnaqiga xizmat qiladigan, dunyo va o'zlikni anglashga oid qimmatli mulohazalar doim dolzarb masala bo'lib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmon Jomiy. Nafahot ul-uns: Azizlar nafasi/A. Jomiy, kotib Mulla G'ulom Rasulxo'ja, Qozi ibn Muhammad Rasulxo'ja. – Toshkent nashri, O.A. Porsev litografiyasi, 1915. – 616 b.
2. Abidova, Z. Q. (2018). Xorazm vohasi ziyoratgohlari va qadamjolari (tarixiy-etnologik tadqiqot). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – 184 b
3. Ahmedov A. Shayx Husayin Bobo tarixi. – Toshkent, 2006. – 48 b.
4. Bobojonov D., Abdurasulov A. Abadiyat farzandlari. – Xiva, Xorazm Ma'mun akademiyasi nashriyoti 2009. – 109 b.
5. Komilov N. Najmiddin Kubro. -T. 1995. – 32 b.
6. Zamira Is'hoqova. Najmiddin Kubro. – Toshkent: “ABU MATBUOT-KONSALT”, 2011. – 44 b.
7. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi // B. Ahmedov tahriri ostida. Toshkent: Cho'lpon, 1993. – 352 b.
8. Xayrullayev M. Ma'naviyat yulduzlari. – T. 2001. – 408 b.
9. O'zbekiston milliy ensklopediyasi. – T. 2005. 5-tom. – 591 b.
10. Hamdulloh Qazvinii. Tarixi Guzida. (“Saylangan tarix”) // Qo'lyozma, O'zFASHI. – № 7, 8, 2786, 3624.
11. Shayx Najmiddin Kubro. Risolayi odob uz-zokiriyn. - Urganch, 1997.
12. <http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/456>.